

DOLZARBLIGI YO'QOLMAYDIGAN MAVZU

Jo'ramirzayev Diyorbek Erkin o'g'li

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti talabasi

O'zbekiston, Toshkent shahri

joramirzayevdiyorbek02@gmail.com

Annotatsiya: O'zbek adabiyotida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan munaqqid va tarjimon Ozod domla haqida gap ketganda haqiqatni boricha aytadigan, nohaqlikni hazm qila olmaydigan adolatparvar inson ko'z oldinga keladi. U yaratgan asarlar ham hech qanday ortiqcha jimjimalarsiz, bo'rttirishlarsiz, chuqur mushohadaga chorlovchi asarlardir. Misol uchun adibning "Ijodni anglash baxti", "E'tiqodimni nega o'zgartirdim", "O'lsam ayrilmasman quchoqlaringdan" kabi maqolalari chuqur mushohada qiladigan, har qanday holatda yaxshilikka intilish, insonparvarlik, vatanparvarlik, adolat tuyg'ular bilan sug'orilgan. Bu insonni o'z ishining ustasi, munaqqidchilikning ustuni sifatida ko'rishimiz mumkin.

Kalit so'zlar: atmosfera, chiqindi, chang, global muammo, ekologik madaniyat, "Yashil makon"

Аннотация: Когда речь идет о критике и переводчике Азоде Домле, занимающем особое место в узбекской литературе, я думаю о справедливом человеке, который говорит правду и не может переварить несправедливость. Созданные им произведения – это также произведения, требующие глубокого наблюдения, без лишних умолчаний и преувеличений. Например, такие статьи писателя, как "Счастье реализации творчества", "Почему я изменил своей вере", "Даже если я умру, я не расстанусь с твоими объятиями" наполнены глубокими наблюдениями, стремлением к добру в любом ситуации, гуманизм, патриотизм и справедливость. В этом человеке мы видим мастера своего дела, столпа критики.

Ключевые слова: атмосфера, отходы, пыль, глобальная проблема, экологическая культура, "Зеленое пространство".

Abstract: When it comes to the critic and translator Ozod Domla, who has a special place in Uzbek literature, I think of a fair person who speaks the truth and cannot digest injustice. The works created by him are also works that call for deep observation, without any unnecessary silences or exaggerations. For example, the writer's articles such as "The happiness of realizing creativity", "Why did I change my faith", "Even if I die, I will not part with your hugs" are filled with deep observations, striving for good in any situation, humanitarianism, patriotism, and justice. . We can see this person as a master of his work, a pillar of criticism.

Key words: atmosphere, waste, dust, global problem, environmental culture, “Green Space”

Adibning “O’lsam ayrilmasman quchoqlaringdan” deya baralla yozilgan maqolasi ham insonni fikrlashga, vatanga bo’lgan muhabbat, bor ne’matlarni qadrlashga va uni kelajakka avlodga yetkazishga chorlaydi. Adib faqatgina buyuk ajdodlarimiz, ularning qoldirgan ilmiy merosi bilan maqtanibgina qolmay, ularga munosib avlod bo’lishga chorlaydi. Vatanga muhabbat bu onaga muhabbat kabi muqaddas tuyg’u ekanligini alohida ta’kidlab o’tadi. Inson onasini qanchalik yaxshi ko’rmasin, uni har doim ham o’ziga ayta olmasligini, ammo inson o’z xatti harakatlari, ko’satgan mehri orqali namoyon qilsa, vatanga bo’lgan sadoqat, mehr tuyg’usi ham amalda bajarilgan ishlar orqali o’z natijasini ko’rsatadi. Bu maqolada yana shunday bir jihatlar borki, bu mavzu hali hamon dolzarb mavzulardan biri bolib kelmoqda. Bu esa Orol dengizining qurishi, qurg’oqchilik, Shahar va qishloqlarda turli xil kasalliklarning ko’payishi, atmosferaning turli xil zararli moddalar va chang bilan qoplanishi, daraxtlarning kesilishi va buning oqibatida vujudga kelayotgan boshqa global ekologik muammolar bugun insoniyatni tashvishga solmoqda. Bu kabi ekologik muammolar bugungi kunda insoniyatdan tabiatga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo’lishni, tabiiy resurslardan unumli va tejamkor tarzda foydalanishni taqozo etmoqda. Adib bu resurslarni tekin deb bir chekkadan sovurish yo’lini tutmasligini, agar shunday bo’ladigan bo’lsa bu serquyosh o’lka faqatgina 3-4 avlodning umri o’tmasdanoq, cho’l-biyobonga aylanishini bot bot ta’kidlaydi,. Buning uchun odamlar oddiy ekologik qoidalarga va ekologik madaniyatga rioya qilishsa kifoya.

Bu o’rinda adibning keltirgan fikrlari esa hali hamon dolzarbligini saqlab qolmoqda. “Men Vatanni, bizga Vatan bo’lgan ona tabiatni asrash haqida, yer, suv, havo, atrof-muhitning salomatligi to’g’risida qayg’urishni ko’zda tutyapman. Men yaqin o’tmishda bu borada qilingan jinoyatlarni aytayotganim yo’q. Orolni quritib yuborganimizni, oltin undirsa bo’ladigan tuprog’imizni zaharlab, bangiga aylantirib qo’yganimizni, o’zimiz ichadigan suvni o’zimiz ayamay bulg’ashni o’rganib qolganimizni nazarda tutayotganim yo’q. Men bugun ham ona tabiatni nogiron qilish sohasidagi qora ishlar davom etayotganini aytmoqchiman. Gapim quruq da’voga aylanib qolmasligi uchun birgina misol keltiray. Bo’stonliqni ko’pchilik juda yaxshi biladi. Uning go’zalliklaridan bahramand bo’lmagan, uning bag’rida miriqib hordiq chiqarmagan odam topilmasa kerak. Bo’stonlik faqat shaharliklarning hordiq chiqaradigan joyigina emas, balki Toshkentday shaxri azimning ekologik muvozanatini saqlashda favqulodda muhim ahamiyatga ega bo’lgan bir maskan. Shuning uchun ham bundan bir necha yillar avval Bo’stonliqda

zavod qurmoqchi bo'lishganida undan keladigan ekologik zararni o'ylab, butun jamoatchilik bu ishga qarshi bosh ko'targan edi. Ko'plab dam olish maskanlarida ta'mi va shifobaxshligi manaman degan ma'dan suvlaridan qolishmaydigan zilol buloqlaridan, Shveysariya havosidan qolishmaydigan musaffo havosidan mustaqil yurtimiz fuqarolari foydalanmoqdalar. Biroq ba'zi birovlar ana shu jannatmakon joyga shaxsiy nafsi deb zug'um qilmoqdalar. Ming Yillik daraxtlarini kesmoqdalar. Ammo har qancha zaruratan qilinayotgan bo'lmasin, buning oqibatida keladigan zararni nima bilan qoplash mumkin? Axir, bitta daraxtni voyaga yetkazish uchun o'nlab yillar kerak-ku. Faqat yillar emas, millionlab mablag' sarflash lozim-ku. Axir, tog'dagi bitta daraxt faqat soyasiyu mevasi bilangina qadrlil emas uning ildizlari tuproqni eroziyadan saqlaydi. Yerni turli-tuman yog'inlarga bardoshli qiladi, yerosti suvlarining yig'ilishi va harakatini ta'minlaydi, barglaridan kislorod chiqarib, iqlimi muayyan darajada boshqarib turadi. Ahvol shunday davom etaveradigan bo'lsa, Toshkentning shundoqqina biqinida ikkinchi Orol paydo bo'lishi hech gap emas. Ana unda ona-Vatanga muhabbatimiz va sadoqatimizni aytib har qancha tavallo qilmaylik, biz tufayli jarohatlangan Vatan bizning beg'amligimiz va noshudligimizni kechirmaydi. Nazarimda, hali-hanuz bizning tafakkurimiz shunaqa bosqichda turganga o'xshaydiki, unda Vatanga muhabbat tushunchasi bilan ona tabiatni ko'z qorachigiday asrash tushunchasi alohida-alohida kataklarga joylab qo'yilgandek ko'rinadi. Holbuki, Vatanga muhabbat bilan ekologik tafakkur bir-biri bilan chambarchas bog'lik bo'lmog'i, hamisha bir-birini to'ldirib turmog'i zarur. Boshqacha aytganimizda, biz Vatanga sevgimiz haqidagi chiroyli gaplarimizni kundalik amaliy ishlarimizda ifodalashni odat qilmog'imiz, odat emas, hayotimizning asosiy qonunlaridan biriga aylantirmog'imiz zarur. Sezib turibman shu o'rinda bir tabiiy savol tug'ilishi ham mumkin maqolada Vatan sevgisi og'izda emas, amalda, ishda namoyon bo'lmog'i kerak degan gap ko'p aytilyapti. Yaxshi, lekin dushman qo'shinini sahroga olib borib adashtirib kelishga har kuni ham imkoniyat topilavermaydiku? Yoxud bugungi kunda jadidchilik faoliyati bilan shug'ullanish juda ham joiz bo'lmasa kerak. Xush, bugungi oddiy odam nima qilmog'i, Vatanga muhabbatini qanday namoyon etmog'i kerak? Axir, tarixda qoladigan ulug' jasoratlarni hamma ham, har kuni qilavermaydi-ku? Menimcha, Vatan yo'lida bir ishni qilishni istagan odam avvalo tarixga kirish haqidagi o'ylarni bir chekkaga yig'ishtirib qo'ymog'i kerak; chunki bir shoir aytganidek, avval ishni qoyil qilmok kerak, shon-shuhratni esa keyin bo'lishib olinaveradi. Hayot esa hamma vaqt jasorat ko'rsatishga imkon beradi jasoratlar, fidokorliklar faqat favqulodda odamlarning maxriga tushgan emas. Prezidentimiz takror-takror

aytadigan bir ibora bor "savob ishni har kim, har kuni qilmog'i lozim". Faqat bir narsani aytmoq joizki, savob ishlar, shu jumladan, Vatan ravnaqi yo'lidagi ishlar hech qachon avvaldan tasdiqlangan ro'yxat bo'yicha, birovlarning ko'rsatmasi bilan qilinmaydi. Har kim o'z aql-zakovati bilan o'z qalbining amriga ko'ra qudrati yetgan darajada, imkoni bor darajada Vatan, elu yurt yo'lidagi ishlarni qiladi. Shuning uchun yana qaytarib aytaman Vatanga muxabbatingizni amalda namoyon qilmoq uchun falon qiling, piston qiling deb ko'rsatma berolmayman. Hayotning o'zida siz qilishingiz mumkin bo'lgan yumushlar oyoq ostidan chiqib qoladi. Hozir o'zi turgan joyda obodonchilik ishlariga yordam berayotgan, maktablarga, bolalar bog'chalariga ko'maklashayotgan, ijodkorlarning kitoblarini chop ettirishga madadlashayotgan, qo'li qisqaroq oilalarga bolalarining to'ylarini o'tkazib berayotgan va yana qanchadan-qancha saxovatpesha ishlarni qilayotgan odamlar haqidagi xabarlar ko'payib qoldi. Bularning bari elu yurt ravnaqi yo'lida qilinayotgan savob ishlardir. Agar bordi-yu, bunaqa ishlarga ham qurbingiz yetmasa, hechqisi yo'q, o'kinmang jilla bo'lmasa, turt-besh tup daraxt eking, hovlingiz atrofini obod qiling, loaqal, eshigingiz tagiga bir tup qirqog'ayni ekingki, o'tgan-ketganlar yashnagan gullarni ko'rib, ichlarida "barakalla" deyishsin. Bunday ishlar ham yurtimiz ning husniga husn, chiroyiga chiroy qo'shadi-ku."¹ Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki muallif faqatgina adabiy faoliyat bilan cheklanib qolmay, ijtimoiy hayotda ham faol bo'lgan, To'g'ri bu borada amalga oshirilishi kerak bo'lgan rejalar, qarorlar tasdiqlanib bo'lgan. Misol uchun, 2021 yil 30 dekabr kuni e'lon qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublikada ko'kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora tadbirlari to'g'risida"gi PF-46-sonli Farmoni² va "Atrof-muhitni muhofaza qilish hamda ekologik nazorat sohasidagi davlat organlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-76-sonli Qarori³ hamda "Yashil makon"⁴ umummilliy harakatini amalga oshirish loyihalari ana shunday o'ta dolzarbligi bilan alohida ajralib turadi. "Agar dunyoda chang bo'lmaganida, inson ming yil umr ko'rardi", deb aytgan edi ulug' alloma, tibbiyot ilmining asoschisi Abu Ali ibn Sino. Ular havodagi zararli karbonat angidridni yutib, o'rniga kislorod ishlab chiqaradi va bizning nafas olishimizga yordam beradi. Ular issiqda salqinlik beradi, atrof-muhitni shovqinlardan himoya qiladi. To'g'ri turli xil qaror va farmonlar ishlab chiqilmoqda, davlat budjetidan millionlab pul ajratilmoqda. Lekin bu atrof muhitga

¹ Ozod Sharofiddinov. Tanlangan asarlar.

² <https://lex.uz/docs/-5801444> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 30.12.2021 yildagi PF-46-son

³ <https://lex.uz/acts/-5801426>

⁴ <https://lex.uz/ru/docs/-5776122>

qanchalik ijobiy ta'sirini ko'rsatmoqda? Bu loyihalarning ijrosi qay tarzda hal etilmoqda? Mazkur qarorlarni ishlab chiqildi, lekin hali hamon noqonuniy yo'l bilan daraxtlarni kesish, o'simlik va hayvonot dunyosiga tahdid qilish, turli xil "qo'shtirnoq ichidagi" tadbirkorlarning hech qanday ruxsatlarsiz qurulish ishlari oqibatida hali hamon shahrimiz eng ifloslangan shaharlar orasida yuqori pog'onani egallab kelmoqda

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ularni qayta tiklash va inson faoliyatining tabiatga salbiy ta'sirini oldini olish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish; atrof-muhitni muhofaza qilish borasida jamoatchilik, fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikni ta'minlash, jamoatchilik nazoratiga uslubiy yordam ko'rsatish va ko'maklashish, fuqarolarning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqlarini ta'minlash; oshirishda qonunchilikka rioya etilishi yuzasidan davlat nazoratini olib borish, maishiy chiqindilarni yig'ish, tashish, utilizatsiya qilish, qayta ishlash va ko'mish borasida davlat va xususiy sherikchilikni faol jalb qilgan holda tizimni tashkil etilishi lozim. Bundan tashqari aholining ekologik madaniyatini oshirishda turli xil loyihalar ishlab chiqish, turli turda ekoploging aksilarini doimiy tarzida o'tkazib borish, shuningdek ekologik muammolar va uning oqibatida kelib chiqadigan xavflarni OAVlarida ko'proq olib chiqish lozim. Ayniqsa bu borada nodavlat telekanallarning, NNTlarning ham alohida o'ringa esa. Misol uchun "Ekolog" jamoat birlashmasi ana shunday jonkuyar tabiat himoyachilarini o'z bag'riga birlashtirgan tashkilot. Undan tashqari Urikguli nomi ostida ijod qilayotgan ekobloger Mutabar Khushvaqtova juda dolzarb ahamiyatga ega mavzularni ko'tarib chiqmoqda. Bundan ko'rinib turibdiki, ekologiya va atrof muhit muhofazasini ta'minlash, ko'kalamzorlashtirish va "Yashil makon"lar barpo etishni jadallashtirish, daraxtzor va butazorlarni asrash va shu kabi bugungi kundagi eng dolzarb vazifalarni hal etishda o'ta muhim huquqiy manba bo'lib qoladi. Qolaversa, ushbu mazkur vazifalar ijrosini ta'minlashda ma'sul xodimlari zimmasiga juda katta mas'uliyat yuklaydi. Sohada mehnat qilayotgan har bir xodim lavozimi, egallab turgan mavqeidan qat'iy nazar ushbu mas'uliyat zalvorini his qilgan holda faoliyat olib borishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ozod Sharofiddinov. Tanlangan asarlar
2. <https://lex.uz/docs/-5801444>
3. <https://lex.uz/acts/-5801426>
4. <https://lex.uz/ru/docs/-5776122>